

KREDIT-MODUL TIZIMI MAZMUNI**Ramuza Joldasbaeva****Nursultan Djanxodjaev****Nurlan Djanxodjaev**

Qoraqalpoq davlat universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14173561>

Annotatsiya. Maqolada kredit-modul tizimi asosida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modelini tuzish uning komponentlari haqida fikr yuritiladi. Jumladan: Kredit-modul tizimiga asoslangan o'quv jarayonining takomillashtirilgan va ta'lim jarayoniga tavsiya etilayotgan modelning maqsad, tashkiliy, mazmun, natija komponentlari tizimli asosda ko'rsatib berilgan. Eng asosiysi o'qitishda kredit-modul tizimi ahamiyati batafsil bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: innovatsiya, ta'lim tizimi, kredit-modul tizimi, oliy ta'lim, ta'lim sifati, boshqaruv jarayoni, kredit soatlari.

CONTENTS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Abstract. The article discusses the components of creating an improved model of preparing students of technological education for professional activity based on the credit-module system.

In particular: the goal, organizational, content, result components of the improved and recommended model of the educational process based on the credit-module system are shown on a systematic basis. Most importantly, the importance of the credit-module system in teaching is explained in detail.

Key words: innovation, educational system, credit module system, higher education, quality of education, management process, credit hours.

СОДЕРЖАНИЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. В статье рассматриваются составляющие создания усовершенствованной модели подготовки студентов технологического образования к профессиональной деятельности на основе кредитно-модульной системы. В частности: на систематической основе показаны целевая, организационная, содержательная, результативная составляющие усовершенствованной и рекомендуемой модели образовательного процесса на основе кредитно-модульной системы. Самое главное, подробно объясняется важность кредитно-модульной системы в обучении.

Ключевые слова: инновации, система образования, кредитно-модульная система, высшее образование, качество образования, процесс управления, кредитные часы.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizasiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish. Ushbu talablar asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hozirgi davrning muhim vazifalaridan biridir.[1]

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimining asosiy maqsadi, barcha sohalarga yetuk mutaxassislarni yetkazib berish, buning uchun ularning ijodiy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda yuksak sifatlariga ega bo'lgan axloqiy jihatdan yetuk fuqarolarni tarbiyalash, o'qitishda yangi pedagogik innovasiya, axborotkommunikasiya texnologiyalari, kredit-modul tizimini joriy qilish, o'qitilayotgan fanning metodik modelini takomillashtirishdan iborat. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab jarayon hisoblanadi.

Ushbu jarayonni amalga oshirishda, ta'lim jarayoning modelini takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Ko'pchilik mualliflar tomonidan bo'lajak mutaxassis kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeliga, muayyan bir sifatlarini tushunishni ta'kidlagan. [2] Pedagogik olim N.F.Talzina tomonidan, bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirishni umumdidaktik yondashuvlar asosida ishlab chiqqan bo'lib, ushbu modelda bo'lajak mutaxassis kadrlarni kasbiy faoliyatida kutilayotgan natija, unga erishish yo'llarining uzviyligi va komponentlarini aks etishi zarurligini alohida ta'kidlab, muallif quyidagilarni bayon etadi: "Bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlashda mutaxassis modelining muammosi o'quv rejalari kabi o'quv dasturlarining ham mazmunini aniqlashda muhim hisoblanadi" [3].

Ilmiy-tadqiqot natijasi asosida bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli-talabalarning mutaxassis darajasiga erishishida auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda o'zlashtirishi lozim bo'lgan mutaxassislik fanlarini o'qitishda kredit-modul tizimidan foydalanib bilim olish va ko'nikmalarni shakllantirish metodikasining mantiqiy tuzilmasi aniqlanib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini mutaxassisligi bo'yicha innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli takomillashtirildi.

Kredit-modul tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli "Maqsad", "Tashkiliy", "Mazmun", "Natija" komponentlardan tashkil topgan bo'lib, quyida barcha komponentlar izohlangan. Kredit-modul tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan model komponentlari quyidagicha izohlanadi:

Maqsad komponentidagi malaka talablarida: bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashga qo'yiladigan ilmiy-tadqiqot, loyihaviy-konstruktorlik, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, foydalanish, xizmat ko'rsatish, pedagogik faoliyat turlari nazarda tutilgan. [4] Model maqsadi: bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish asosida o'qitishdan iboratdir. Tashkiliy komponent modelda bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish maqsadi asosida, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'quv-metodik va didaktik ta'minot asosida innovasion yondashuvlar, dasturiy ta'lim vositalar va tamoyillarga asoslanib, didaktik, tashkiliymetodik, xususiyatlari o'rganildi. O'quv-metodik va didaktik ta'minot - Texnologik ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha (Darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma, o'quv-uslubiy majmualar) tayyorlangan materiallardan maqsadli va samarali foydalanishni ko'rsatib berdi.

Oliy ta'lim muassasalarida turli lavozimlarda ishlovchi raxbar kadrlardan so'rovnoma o'tkazish orqali bir qator natijalarga erishildi. Amalga oshirilgan taxlillar natijasida yuz nafar respondentlar ta'lim tizimini olib borish shakliga ko'ra kredit ta'lim tizimini afzal ko'rishlarini bildirdilar. Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida katta islohotlar olib borilmoqda.

Xususiy oliy ta'lim muassasalarini ochilishi, Oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyatini baholash va dasturlarni tuzish uchun mo'ljallangan kredit tizimiga o'tilishi, innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab quvvatlanishi shular jumlasidandir. Mustaqillikka erishilgan davrda oliy ta'lim faoliyatida modulli baholash tizimi joriy etilgan bo'lib, bunda o'quv dasturi alohida modul yoki bloklarga bo'linadi, ularning har biri ma'lum vaqt oralig'ida o'rganiladi va baholash bilan yakunlanadi. Kredit tizimini ham bir necha shakllarini kuzatishimiz mumkin:

Evropa kredit o'tkazish va to'plash tizimi (ECTS): Evropa Ittifoqida turli ta'lim muassasalari bo'ylab talabalar tomonidan o'qish kreditlarini o'tkazish va to'plashni osonlashtirish uchun foydalaniladi. Bir ECTS krediti odatda 25-30 soatlik o'quv ishiga teng. AQSH kredit soatlari tizimi: Amerika universitetlari butun semestr davomida haftasiga bir soat ma'ruza yoki ikki-uch soat amaliy mashg'ulotlarni ifodalovchi kredit soati tushunchasidan foydalanadilar. [5] Britaniya kredit tizimi: Buyuk Britaniya va Britaniya ta'lim modeliga amal qiluvchi boshqa ba'zi mamlakatlar ECTS tizimiga o'xshash tizimdan foydalanadi, ammo ba'zi farqlar bilan. U modullar yoki kurslar uchun kreditlarni belgilashni nazarda tutadi va bitta kredit olish uchun talab qilinadigan soatlar soni ECTS dan farq qilishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada bitta kredit odatda 10 soatlik o'quv ishiga to'g'ri keladi. Kanada kredit tizimi: Kanadadagi kredit tizimi AQSH kredit tizimiga o'xshaydi, lekin shtat va maktabga qarab farq qilishi mumkin.

Umuman olganda, talabalar Kanada o'rta ta'lim tizimidan keyingi darajaga o'tkazilishi va ishlatilishi mumkin bo'lgan kurs kreditlarini oladi. Avstraliya kredit tizimi: Avstraliyada o'quv dasturlari ham kredit tizimi bo'yicha tashkil etiladi, har bir kurs ma'lum miqdordagi kredit birliklariga to'g'ri keladi. Ushbu tizimlar kurs tanlashda moslashuvchanlikni ta'minlaydi va talabalarni ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkazish jarayonini soddalashtiradi. Osiyo kredit tizimlari Ko'pgina Osiyo mamlakatlari mahalliy ta'lim an'alarini va xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda o'zlarining kredit tizimlarini ishlab chiqdilar. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreyada kredit tizimi Amerikanikiga o'xshash, ammo ta'limning milliy xususiyatlariga moslashtirilgan.

Rossiya kredit tizimi: Rossiyada va boshqa postsovet mamlakatlarida kredit tizimi qo'llaniladi, bu ham ECTS kredit tizimiga o'xshaydi. U ta'lim kurslarini muvaffaqiyatli yakunlash uchun kreditlar ajratishni nazarda tutadi, bu esa talabalarning mamlakat ichidagi va xorijdagi universitetlar o'rtasida harakatlanishini osonlashtiradi. O'zbekistonda ham kredit tizimiga o'tilishi milliy urf odatlar va shu bugungi kungacha mavjud bo'lgan ta'lim tizimini inobatga olgan holda shakllantirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga muvofiq Kredit-modul tizimini joriy etish oliy ta'lim muassasalarining 2023 yilda 16 foizini, 2025yilga kelib 57 foizini va 2030 yilda 85 foizni tashkil etishi mo'ljallangan. O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra kredit ta'lim tizimini joriy etish maqsadga muvofiq va oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega deb hisoblaydigan professor o'qituvchilar 77 foizni tashkil etmoqda. 18 foiz ovoz berganlar esa aralash tizimda faoliyat yuritishni, 3 foiz professor o'qituvchilar esa umuman an'anaviy ta'lim tizimida qolishni afzal deb biladilar. O'tkazilgan tadqiqotlar mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida islohotlar olib borish zarurati borligini, professor o'qituvchilar yangiliklarni qabul qilish borasida turli qarshiliklar bilan qabul qilayotganligini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, Kredit ta'lim tizimi professor-o'qituvchilar tarkibi faoliyatiga, o'qitish metodiga o'zgartirishlar kiritishga, darsni rejalashtirishga, talabalar bilimini baholashga va o'quv jarayonini umumiy tashkil etishga katta ta'sir ko'rsatadi. [6]

Xulosa sifatida, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida kredit ta'lim tizimini samarali tatbiq etish uchun o'quv jarayonini yangilash, ta'lim sifatini oshirish va ta'lim dasturlarining moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu yerda quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor berish kerak: O'qituvchilar malakasini oshirish:

O'qituvchilar uchun kredit tizimi doirasida o'qitish metodikasi bo'yicha kurslar va treninglar tashkil etish, shu jumladan kurslar, talabalar bilimini baholash va o'quv jarayonini boshqarish usullarini ishlab chiqish zarur.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz
2. Muxamedov Sh.M. "Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit- modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –B.: 2022 y. – 155 b.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy - metodik asoslari.: Ped. fan. dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007 y. – 45 b
4. Cao, H. (2004). Influence of Credit System on Ideological and Political Education of University Students and Its Countermeasures. Journal of Shihezi University.
5. LI, G. (2003). An Analysis of the Restrictive Elements to Credit System and the Recommended Countermeasures. Journal of Yangzhou University. Rasulov, I. M. (2021). Problems and solutions of teaching in credit-module system in higher education institutions. The American journal of social science and education innovations. Usmonov, B. (2020). introducing a credit recognition system for higher education institutions. 11, 809-819.
6. Yu, Z. (2016). Innovation and Exploration of Teaching Management Based on Credit System.